

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-5

O'QUVCHI YOSHLARNI TARBIYALASHDA IJTIMOY INSTITUTLAR VA TA'LIM MUASSASALARI HAMKORLIGINING TAKOMILLASHTIRISH

Xamroyev Kamol Qahramonovich

Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lif fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada “Oila, maktab, mahalla hamkorligi” bugungi kunning ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an’analari, urf odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyatga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta’minalash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirishning mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy, yosh avlod, axloqiy, milliy, madaniy, tarixiy an’analalar, urf odatlar, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy pedagogik texnologiya.

Аннотация: в данной статье утверждается, что «сотрудничество семьи, школы, соседства» является духовной, образовательной, идеологической и воспитательной необходимостью современности. Разработка и внедрение в практику эффективных, современных педагогических технологий, основанных на богатых национальных, культурных, исторических традициях, обычаях и общечеловеческих ценностях нашего народа в духовно-нравственном воспитании молодого поколения, обеспечении приоритета воспитания личности и совершенствования. он во всех аспектах; объяснена сущность повышения общей и национальной педагогической культуры.

Ключевые слова: духовно-просветительские, идеологические, воспитательные, молодое поколение, нравственные, национальные, культурные, исторические традиции, обычаи, общечеловеческие ценности, современные педагогические технологии.

Abstract: this article argues that “cooperation between family, school, neighborhood” is a spiritual, educational, ideological and educational necessity of our time. Development and implementation into practice of effective, modern pedagogical technologies based on the rich national, cultural, historical traditions, customs and universal values of our people in the spiritual and moral education of the younger generation, ensuring the priority of personality education and improvement. he is in all aspects; the essence of improving the general and national pedagogical culture is explained.

Key words: spiritual and educational, ideological, educational, younger generation, moral, national, cultural, historical traditions, customs, universal values, modern pedagogical technologies.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo’lgan xususiyatlarga ega bo’lishini ta’minalash yo’lida ko’riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minalaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-5

ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, məktəb, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham O'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda Tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi.

Buni oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarrbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlarning qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajodolari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzlusiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim¹.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turliha izohlab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura Tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va O'zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiqi tufayli Tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniqa ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irlar va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadidi.

Sho'rolar davrida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniqa oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining Tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida Tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'naliishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash karor topdi, Bu hol Tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki Tarbiyaning asosiy ob'yekti bo'lmish shaxs va uning O'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

¹ R.A.Mavlonova, B.Normurodova. "Tarbiyaviy ishlarni metodikasi". –T., 2007 yil.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-5

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriimiy sinfiy partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq ped.si boyliklari, O'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilayotir. Natijada, O'zbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila Tarbiyasing ham, ijtimoiy Tarbiyaning ham O'ziga xos o'rni borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, Tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtida, shaxsning shakllanishida Tarbiyaning o'rni keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol Tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi.

Albatta yoshlar tarbiyasi masalasiga qaytadigan bo'lsak yana ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorligiga to'xtalish o'rnlidir.

"Oila, mакtab, mahalla hamkorligi" bugungi kunning ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogic madaniyatni oshirish;

mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy, mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish "Oila, mакtab, mahalla hamkorligi" asosiy maqsadidir.

Mazkur vazifalar ijtimoiy ish xodimlari va mahalla faollari bilan tarbiya masalalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi zarur bo'lgan masalalarni muhokama qilish va ularni oqilona hal etishda faollik ko'rsatish, oialaviy tarbiya jarayonini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Hozirgi O'zbekiston sharoitida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi alohida shaxslar, oila yoki guruhlarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi, moslashuviga yo'naltirilgan ijtimoiy insonparvarlik faoliyatining alohida usullari tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish jarayonida oila, mahalla va mакtab tizimi samaradorligini oshirish usullari:

Oilaning vazifalari:

- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini taminlash;
- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishi uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;
- O'z farzandlarining mакtab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;
- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy-axloqiy tomonlarini shakillantirish;

Mahallaning vazifalari:

- mahalla O'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab va farzandlarning bilim va tarbiya olishda bosh-qosh bo'lish;
- ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko'rish;
- mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish;

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-5

- ota-onalar yordamida bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalminallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag'batlantirish;

Maktabning vazifalari:

- O'z hududidagi mahalla jamoalari faoliyatining tarbiyaviy maqsad yo'lida muvofiqlashtirish;

-tarbiysi "og'ir" qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishslash, oilalarga pedagogik yordam ko'rsatish;

- bola tarbiysi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib tajribalarini omammalshtirish;

- maktabda bolaga biron-bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam poydevorni yaratish, O'quvchi yoshlarning sport turi bilan shug'ullanishlariga yordam berish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;

- mahallada xotin-qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, o'smir yoshlarning dunyoviy bilimlariga bo'lgan intilishlarni rag'batlantirish;

- maktab negizida pedagogik, huquqiy, psixologik ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi "Ota-onalar universiteti" faolitaini tashkil qilish.²

Jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, bu borada davlat va

nodavlat tashkilotlarining roli va ahamiyatini ko'rsatish, jismoniy sog'lom, ma'nanyetuk va barkamol avlodni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalihsiga aylanib ulgurdi. Kelajagimiz egallarining ma'nан yetuk, jismonan sog'lom, yuksak salohiyatli, hech kimdan kam bo'lмаган holda kamolga yetishida oila, mahalla, ta'lim muassasi hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyanuvchilarining ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironqa tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi O'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda O'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish **tarbiya usullari** deb ataladi.

Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi O'zining tarbiyanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'rganilmagan so'qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo'llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to'g'ri qo'llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tafsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

² "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" konsepsiysi 1993 yil, 67-bet

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-5

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.